



YASHIL IQTISODIYOT – YANGI ZAMON, DAVR TALABI

Yuldoshev Husniddin To‘lqin o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Husniddinyuldoshev78@gmail.com

Eshmuradov Ulug‘bek Tashmuratovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası mudiri
<https://orcid.org/0009-0005-5325-9176>

ulugbek1983.05@gmail.com

Annotatsiya: Dunyo iqtisodiyoti tobora kengayib, rivojlanib bormoqda. Jamiyatimizga yangi texnologiyalar va innovatsiyalar kirib kelib bizdan yangicha yondashuvlar va kreativlik bilan ishlashni talab etmoqda. Dunyo aholisi salkam 8 mlrd ga yaqinlashganda ularning ehtiyojini qondirish maqsadida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, tabiat va uning ne‘matlarini kelgusi avlodga to‘laligicha yetkazib berish eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada yuqoridagi muammolarga yechim va taklif sifatida “Yashil iqtisodiyot” deb nom olgan yangi soha va uning ahamiyati to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o‘shish, qayta tiklanadigan energiya, resurslar, tejamkorlik.



Аннотация: Мировая экономика расширяется и развивается. В наше общество проникают новые технологии и инновации, требующие от нас новых подходов и креативности. Поскольку численность населения мира приближается к 8 миллиардам человек, стабилизация экономики для удовлетворения их потребностей, забота об окружающей среде и обеспечение полного сохранения природы и ее благ для будущих поколений стали одними из самых актуальных вопросов. В статье представлена подробная информация о новой области под названием «Зеленая экономика» и ее значении как решения и предложения по вышеуказанным проблемам.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, возобновляемая энергия, ресурсы, сбережения.

Abstract: The world economy is expanding and developing. New technologies and innovations are entering our society, requiring us to work with new approaches and creativity. As the world population approaches 8 billion, one of the most pressing issues has become to stabilize the economy and take a careful approach to the environment in order to meet their needs, and to fully deliver nature and its benefits to future generations. This article provides detailed information about the new field called “Green Economy” and its importance as a solution and proposal to the above problems.

Key words: green economy, green growth, renewable energy, resources, saving.

Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi.¹

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot



Yashil iqtisodiyot deganda, inson hamda yer yuzidagi barcha tirik mavjudodlar hayoti va sogʻligʻi uchun zarur boʻlgan tabiat resurslarini, atrof-muhit va ekologiyani bir butun yaxlit holda nafaqat saqlab qolish, balki uni yanada yashillashtirib, boyitib, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarini rivojlantirish, takomillashtirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni yangicha yoʻnalishda tizimli tashkil etish tushiniladi.²

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavfsizlikni taʼminlagan holda iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash modelidir. Ushbu yondashuv energetika, sanoat, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarda resurslardan oqilona foydalanishni va atrof-muhitni himoya qilishni oʻz ichiga oladi.³

“Yashil iqtisodiyot”ga oʻtishning asosiy maqsadi - iqtisodiy oʻsishni taʼminlash va investitsiyalar bilan bir vaqtda atrof-muhit sifati va ijtimoiy inklyuzivlikni oshirishdan iborat.⁴

Bugungi kunda dunyo boʻyicha “yashil” iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global “yashil” iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda “Yashil” oʻsish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting koʻrsatkichlari keng qoʻllanilmoqda. Keyingi keng qoʻllanilib kelinayotgan koʻrsatkich “Yashil” oʻsish indeksi (GGI) hisoblanadi. “Yashil” oʻsish indeksi 4 ta maqsadli yoʻnalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat boʻlib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi. “Yashil” oʻsish indeksiga koʻra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori “yashil” oʻsish koʻrsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari oʻrin

² Yuldashev M.I. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, dekabr. No11-12-sonlar.

³ <https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60583>

⁴ Ондаш А.О. Стратегические цели и альтернативы индустриальноинновационного развития казахстанской экономики на современном этапе социально-экономического развития Республики Казахстан. KazNU Bulletin. International relations and international law series. №3 (75). 2016.



egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg'iziston mazkur reyting bo'yicha yuqori o'rindagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.

O'zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o'rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda "Ijtimoiy qamrov" (Social inclusion) hamda "Tabiiy kapital himoyasi" (Natural capital protection) ko'rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo'lsa, "Resurslardan samarali va barqaror foydalanish" (Efficient and sustainable resource use), "Yashil" iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo'nalishdagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.⁵

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasida yashil iqtisodiyotga o'tish, barqarorlikni ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlash asosiy maqsadlar qatoriga kiradi. O'zbekiston yaqin istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun tegishli rejalarga ega davlatlardan biri bo'lib, ushbu yo'nalishdagi islohotlar yaxshi natija berayotganida ham ko'rish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlash" to'g'risidagi, 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qaror, 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-213-son qarorilari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiy o'sishni ta'minlash 6 ta ustuvor yo'nalishda amalga oshirish belgilangan:⁶

⁵ <https://daryo.uz/2022/03/30/ozbekiston-yashil-osish-indeksida-osiyo-davlatlari-ichida-33-orinda-yashil-iqtisodiyot-oz-nima-degani>

⁶ 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi. 2022-yil 2-dekabr, PQ-436-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/>



- 1) tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish;
- 2) milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash;
- 3) milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash;
- 4) innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish;
- 5) barqaror va inklyuziv "yashil" urbanizatsiyani rivojlantirish;
- 6) "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida katta ta'sir ostida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi va ularning yashash joylarini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu ustuvor yo'nalishlar bo'yicha vazifalarning samarali amalga oshirilishi quyidagi yo'nalishlardagi tarmoqlararo choralar bilan bir qatorda amalga oshiriladi:

"yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish;

"yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish;

tashqi va ichki "yashil" moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish.

Shulardan kelib chiqib, ushbu yo'nalishda mamlakatda iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va unga moslashish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini jadallashtirish, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish modelini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Global biznes vakili bo'lgan Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) yashil iqtisodiyotni: «Iqtisodiy o'sish va ekologik mas'uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo'llab-quvvatlagan holda o'zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot» – deb ta'riflaydi.[1] Demak, biz yashil iqtisodiyotni ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot deb atashimiz ham mumkin.

UNEP 2011-yilgi Yashil Iqtisodiyot hisobotida ta'kidlanishicha, „iqtisodiyot yashil bo'lishi uchun nafaqat samarali, balki adolatli bo'lishi ham kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o'lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni



tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o'tishni ta'minlashni nazarda tutadi"[2].

Karl Burkart [3] yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan:

- Qayta tiklanadigan energiya;
- Yashil binolar;
- Barqaror transport;
- Suvni boshqarish;
- Chiqindilarni boshqarish;
- Yerni boshqarish.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning o'ziga yarasha bir qancha sabablari bor ularni mahalliy, mintaqaviy va global miqyosdagi ta'sirlarga ajratish mumkin. Inqirozga qarshi salohiyat nuqtai nazaridan, eko-innovatsiyalar, yashil investitsiya va, umuman, yashil iqtisodiyot, bandlikni oshirish, ishsizlikni yumshatish, iqtisodiyotning barcha sohalarida faoliyatni rag'batlantirish va retsessiyadan tezroq chiqib ketish imkonini beradi. Eko-innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda, atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish va tabiiy resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish orqali sezilarli va aniq o'sishga qaratilgan har qanday yangilik shakli sifatida ta'riflanadi, yashil iqtisodiyotning esa umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassisleri (UNEP) "yashil iqtisodiyot"ni iqtisodiy faoliyat sifatida hisobga olib, bu tushunchani keng tushunishni taklif etadi, ya'ni "yashil iqtisodiyot insonlarning farovonligini yaxshilaydi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi, ekologik xavflarni va tabiatning yemirilib ketishini sezilarli darajada kamaytiradi" degan ta'rifni beradi. "Yashil iqtisodiyot"ning bu ta'rifi deyarli yaxshi ma'lum bo'lgan barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan farq qilmaydi.[4]

Yana tor ma'noda, "yashil iqtisodiyot"ni ifloslantiruvchi moddalar va issiqxona gazlarining emissiyasini nazorat qilish va kamaytirish, iqlim o'zgarishini kuzatish va



prognozlash, shuningdek, energiya va resurslarni tejash texnologiyalarini va qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanish tushuniladi. Bu binolar va inshootlarni harorat, namlik va shamol yukining keskin o'zgarishlaridan himoya qilish uchun texnologiyalar va materiallarni yaratish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi; ekologik toza mahsulotlar, shu jumladan, qishloq xo'jaligi (oziq-ovqat, tabiiy tolalar) va iste'mol tovarlarini (kimyoviy qo'shimchalarsiz tabiiy va tabiiy asosda dorilar va shaxsiy parvarish mahsulotlari) ishlab chiqarish, boshqacha aytganda, "yashil iqtisodiyot" iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga hayot sifatini va turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashadigan xo'jalik faoliyatining turlari va natijalarini o'z ichiga oladi.

Ushbu bir qator sabablar butun dunyo bo'ylab yashil iqtisodiyotga o'tish eng maqbul yechim ekanligini ko'rsatadi va ko'plab davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "barqaror rivojlanish kun tartibi 2030" hujjati bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Barqaror rivojlanish kun tartibi 2030" hujjati 2015-yilda qabul qilingan bo'lib, u global miqyosda qashshoqlikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va barcha insonlar uchun tinchlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadini (BRM) o'z ichiga oladi.

Quyida ushbu 17 ta maqsad keltirilgan:

1. Qashshoqlikka barham berish: Barcha shakllardagi va ko'lamdagi qashshoqlikka barham berish.
2. Ochlikni tugatish: Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, oziqlanishni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish.
3. Sog'liqni saqlash va farovonlik: Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi insonlar uchun farovonlikni targ'ib qilish.



4. Ta'lim sifatini oshirish: Barcha uchun inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va umr bo'yi o'qish imkoniyatlarini rag'batlantirish.
5. Gender tengligini ta'minlash: Gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar hamda qizlarning huquqlarini kengaytirish.
6. Toza suv va sanitariya: Barcha uchun suv va sanitariyaga bo'lgan imkoniyatni ta'minlash va ularni barqaror boshqarish.
7. Arzon va toza energiya: Barcha uchun arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan foydalanishni ta'minlash.
8. Munozarali mehnat va iqtisodiy o'sish: Barqaror, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali bandlikni hamda munosib mehnatni ta'minlash.
9. Sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma: Barqaror infratuzilmani yaratish, inklyuziv va barqaror industrializatsiyani rag'batlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.
10. Tengsizlikni kamaytirish: Mamlakatlar ichida va ular o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish.
11. Barqaror shaharlar va jamoalar: Shaharlar va aholi punktlarini inklyuziv, xavfsiz, barqaror va bardoshli qilish.
12. Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish: Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish shakllarini ta'minlash.
13. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash: Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi shoshilinch choralar ko'rish.
14. Suv osti hayoti: Okeanlar, dengizlar va dengiz resurslarini barqaror rivojlanish uchun saqlash va ulardan oqilona foydalanish.
15. Quruqlikdagi ekotizimlar: Quruqlikdagi ekotizimlarni himoya qilish, ularni barqaror boshqarish, cho'llanishga qarshi kurashish, yer degradatsiyasini to'xtatish va biologik xilma-xillikni saqlash.



16. Tinchlik, adolat va kuchli institutlar: Tinchlikparvar va inklyuziv jamiyatlarni rivojlantirish, barcha uchun adolatga erishish imkoniyatini ta'minlash va samarali, hisobdor hamda inklyuziv institutlarni yaratish.

17. Maqsadlar uchun hamkorlik: Barqaror rivojlanish uchun global hamkorlikni mustahkamlash va amalga oshirish vositalarini kuchaytirish.

Ushbu maqsadlar 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan aniq vazifalarni o'z ichiga oladi va barcha davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.[5]

Yashil iqtisodiyot mamlakatlarni barqaror rivojlanishi, iste'mol va ishlab chiqarish hamda resurslar sama-radorligini oshirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Albatta, yashil iqtisodiyotga o'tishda bir qancha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Iqtisodiyotga o'zgarishlar bu yangi xarajatlar degani va davlat budjetiga bir qancha bosim olib keladi. Lekin, shunga qaramay davr bizdan yashil iqtisodiyotga o'tish vaqti kelganligini va jamiyatimiz bundanda farovon bo'lishi, barqaror rivojlaishi uchun aynan ushbu soha eng yaxshi yechimlardan ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu sababli yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanish yo'lini tanlash davr talabi deya aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yashil iqtisodiyot nima? O'zbekiston yashil iqtisodiyotga qachon o'tadi?
<https://ufia.uz/yashil-iqtisodiyot-nima-ozbekiston-yashil-iqtisodiyotga-qachon-otadi/>
2. "United Nations Environment Programme (UNEP)"
3. <https://ufia.uz/yashil-iqtisodiyot-nima-ozbekiston-yashil-iqtisodiyotga -qachon-otadi/>
4. United Nations Environmental Programme: Green Economy
http://www.unep.org/greeneconomy/Portals/88/documents/research_products/briefingpapers/Ru_GE_HEALTH.pdf. - №. 2
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari | O'zbekistonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti jamoasi.
<https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot



7. Yuldashev M.I. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil dekabr. No11-12-sonlar
8. <https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/60583>
9. Ондаш А.О. Стратегические цели и альтернативы индустриальноинновационного развития казахстанской экономики на современном этапе социально-экономического развития Республики Казахстан. KazNU Bulletin. International relations and international law series. №3 (75). 2016.
10. <https://daryo.uz/2022/03/30/ozbekiston-yashil-osish-indeksida-osiyo-davlatlari-ichida-33-orinda-yashil-iqtisodiyot-oz-nima-degani>
11. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi. 2022-yil 2-dekabr, PQ-436-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/>